

"USTURUSHONA: QADIMGI MIGRATSIYA IZLARI"**Eshmamatova Nozima Baxodir qizi***Magistrant, (Jizzax davlat pedagogika universiteti)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimiy Usturushona hududidagi migratsion jarayonlar tahlil qilinadi. Migratsiyaning turli bosqichlari, sabab va oqibatlari hamda bu jarayonlarning hududiy madaniyat va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri o'rganiladi. Asosiy e'tibor arxeologik va tarixiy manbalar asosida Usturushona hududidagi etnik tarkib va harakatlarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Usturushona, qadimiy migratsiya, etnik tarkib, arxeologik manbalar, tarixiy jarayonlar.

Аннотация: В данной статье анализируются миграционные процессы на территории древней Устурушоны. Рассматриваются различные этапы миграции, их причины и последствия, а также влияние этих процессов на региональную культуру и экономическое развитие. Основное внимание уделено освещению этнического состава и движений на территории Устурушоны на основе археологических и исторических источников.

Ключевые слова: Устурушона, древняя миграция, этнический состав, археологические источники, исторические процессы.

Abstract: This article analyzes the migration processes in the ancient territory of Usturushona. It examines the various stages of migration, their causes and consequences, as well as the impact of these processes on regional culture and economic development. The main focus is on exploring the ethnic composition and movements in the Usturushona region based on archaeological and historical sources.

Keywords: Usturushona, ancient migration, ethnic composition, archaeological sources, historical processes.

Usturushona qadimdan o'zining boy madaniy merosi va geografik joylashuvi bilan Markaziy Osiyoning diqqatga sazovor hududlaridan biri bo'lgan. Bu mintaqqa qadimda strategik ahamiyatga ega bo'lgan savdo yo'llari chorrahasi sifatida shakllangan. Migratsion jarayonlar Usturushonaning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Mazkur maqolada ushbu hududdagi qadimiy migratsiyalarning tarixiy ildizlari va ularning oqibatlari o'rganiladi.

Usturushona, o'zining tabiiy geografik holati tufayli, qadimdan ko'chmanchilar va doimiy aholi uchun strategik joy sifatida shakllangan. Zarafshon vodiysining unumdor yerlari va Pomir tog'larining tabiiy resurslarga boyligi bu hududni turli etnik guruhlar uchun jozibador qilgan. Ayniqsa, Samarqand va Buxoro kabi yirik madaniy markazlarga yaqinligi Usturushonaning tarixida muhim ahamiyat kasb etgan.

Arxeologik qazilmalar va yozma manbalar bu hududning miloddan avvalgi IV asrdan boshlab turli etnik guruhlar migratsiyasiga guvoh bo'lganligini ko'rsatadi. Usturushona nafaqat mintaqaviy rivojlanishning markazi, balki o'zaro ta'sir va madaniyatlarning

tutashuvi nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Bu jarayon hududning boy madaniy xilmaxilligini va iqtisodiy o'sishini ta'minlagan.⁵⁵

Bu hududdagi migratsiyaning asosiy sabablaridan biri hududning tabiiy geografik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Zarafshon vodiysining unumdor yerlari sug'orish tizimlari bilan boyitilib, chorvachilik va dehqonchilik uchun qulay sharoit yaratgan. Iqlim o'zgarishlari, jumladan, qurg'oqchilik yoki tabiiy ofatlar, ba'zi aholining yangi yerlarga ko'chishiga olib kelgan.

Usturushona qadimdan xalqaro savdo yo'llarining muhim qismi bo'lgan. Buyuk ipak yo'lining asosiy tarmoqlaridan biri bu hududdan o'tgan bo'lib, bu iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Xususan Buyuk Ipak yo'li Usturushona xalqining iqtisodi va madaniyati, jumladan xo'jalik madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Eng serqatnov karvon yo'li Bog'dod – Tabriz – Koshon – Marv – Chorjuy – Buxoro – Samarqand – Xarakana – Dizak yo'nalishi bo'lgan. Savdo-sotiq jarayonlari natijasida turli xalqlar va etnik guruhlarining o'zaro munosabatlari ham kuchaygan. Savdo yo'llarining mavjudligi va mintaqaning tabiiy resurslarga boyligi ko'chmanchi xalqlar uchun bu hududni maqsad qilib olinishiga sabab bo'lgan. Bu yo'nalishlarda ayniqsa saklar, massagetlar, eftalitlar va turli ko'chmanchi qabilalarning migratsiyasi kuzatilgan.

Savdo aloqalari rivojlanishi va resurslarning ko'payishi hududning iqtisodiy jihatdan mustahkamlanishiga olib kelgan. Mahalliy va mintaqaviy bozorlarda qadimgi Usturushonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'z o'rniga ega bo'lgani arxeologik topilmalardan ma'lum. Tarixchi Al-Muqaddasiy o'zining "Ahsan at-taqasim fi ma'rifat al-aqalim" ("Hududlarni bilishda eng yaxshi taqsimot") asarida Usturushona haqida fikr bildirar ekan uning shaharlaridan biri hisoblangan Dizak haqida "jizzaxliklar tivit(jun)dan tayyorlanadigan ajoyib matolari va undan tikiladigan kiyim-kechaklari, gilamdo'zlik, namat bosish bilan mashhur bo'lishgan" degan fikrlarni ham keltirib o'tadi.

Usturushona ko'pincha kuchli davlatlar tomonidan harbiy strategik hudud sifatida foydalanilgan. Masalan Kushonlar imperiyasi davrida hududning ahamiyati oshgan. Shuningdek, arablarning bosqinlari davrida hududda musulmon madaniyatining tarqalishi va bu jarayonning yangi migratsion to'lqinlarni keltirib chiqargani kuzatiladi.

Usturushonada ko'chmanchi va doimiy yashovchi xalqlar birgalikda yashagan. Saklar, massagetlar va kushonlar kabi xalqlarning migratsiyasi bu hududning etnik tarkibini o'zgartirgan.

Migratsiya orqali Usturushonaga yangi sug'orish texnologiyalari, qishloq xo'jaligi uslublari va hunarmandchilik texnikalari kirib kelgan. Ayniqsa, metallurgiya va keramika ishlab chiqarish bo'yicha hududda yangi texnologiyalarning rivojlanishi kuzatiladi.⁵⁶

Migratsiyalarni mintaqat rivojiga ham katta tasir ko'rsatganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan migratsion jarayonlar Usturushona madaniyatini boyitgan. Yangi kelgan etnik guruhlar mahalliy aholi bilan o'zaro ta'sirga kirishib, mushtarak madaniyatlarni shakllantirgan. Masalan, arxeologik topilmalar orasida turli davrlarga

⁵⁵ 1. Raxmatov, A. "Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi." Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2019.

➤ ⁵⁶ Raxmatov, A. "Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi." Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2019.

mansub diniy buyumlar, tangalar va hunarmandchilik mahsulotlari uchraydi, bu esa turli madaniy qatlamlarning birlashuvini ko'rsatadi.

Arxeologik qazishmalar davomida topilgan buyumlar, jumladan, tangalar, qurollar, uy-ro'zg'or ashyolari, migratsion jarayonlar haqida ma'lumot beradi. Panjikent, Qal'ai Mug va boshqa qadimiy shaharlar bu borada katta ahamiyatga ega.⁵⁷

Panjikent qadimiy shahri va uning atrofidagi qishloqlarda olib borilgan qazishmalar, bu hududda turli madaniy qatlamlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu topilmalar, jumladan, freskalar va sopol idishlar, migratsiya jarayonlarining san'at va hunarmandchilikka bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi.

VII-VIII asrlarda arablarning hududga kirib kelishi bilan musulmon madaniyati va islom dinining keng tarqalishi kuzatiladi. Bu esa mahalliy madaniyatni yanada boyitgan va yangi siyosiy tuzumlarning shakllanishiga olib kelgan.

Tarixiy manbalarda Usturushona o'zining boy madaniy va iqtisodiy hayoti bilan tilga olinadi. Xitoy yilnomalari, arab manbalari va mahalliy tarixiy asarlar hududdagi migratsiya jarayonlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Qadimgi Usturushona migratsion jarayonlarining chuqur izlarini o'zida mujassam etgan. Ushbu jarayonlar hududning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Migratsion harakatlar natijasida mintqa yangi texnologiyalar, madaniy shakllar va iqtisodiy aloqalarning o'zaro uyg'unlashuvi maydoniga aylangan. Bugungi kunda Usturushona o'tmishdagi boy tarixiy merosi orqali tadqiqotchilar uchun qiziqarli manba bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatov, A. "Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi." Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2019.
2. B. Berdimurodov. "Usturushonaning tarixiy manbalari." Toshkent, 2018.
3. Frantzgren, R. "Ancient Silk Road Cities of Central Asia." London: Cambridge Press, 2017.
4. Qosimov, O. "O'rta Osiyoning qadimiy davlatlari." Toshkent: Fan, 2020.
5. Arxeologik tadqiqotlar jurnali. №12, Toshkent, 2022.
6. Toshboyev F "Qadimgi Usturushona chorvadorlari madaniyati (arxeologik manbalar asosida)" Toshkent 2022.

⁵⁷ Qosimov, O. "O'rta Osiyoning qadimiy davlatlari." Toshkent: Fan, 2020.